

Axtamov Jamshed Baxromovich – SamISI,
“Jismoniy madaniyat”
kafedra mudiri

E-mail: b.inatov2002@gmail.com

Kosse Rulen Bekirovich-SamISI “Jismoniy madaniyat”
kafedra o’qituvchisi

**Muammoli amaliy mashg’ulotlarini tashkil etishda faol o’qitish
usullaridan foydalanish xususiyatlari**

Аннотасија: «Muammoli mashg’ulotlarini tashkil etishda faol o’qitish usullaridan foydalanish xususiyatlari» deb nomlangan maqolada muammoli ta’lim darajalari, xususiyatlari va muammoli vaziyatlarning turlari tahlil yetilgan bo’lib, muammoli ta’lim asosida darslarni tashkil yetish zarurati asoslanadi.

Калит со’злар: bilim, vaziyat, vaziyatli tahlil, kasb, muammoli vaziyat, ta’lim olish, ta’lim berish, o’qitish, yevristik o’qitish, modulli o’qitish, intellekt, o’qitish turlari.

Аннотция: В статье под названием «Особенности организации проблемных занятий» рассматриваются вопросы, уровни проблемного обучения и создания проблемных ситуаций, а также необходимости проблемного обучения в настоящее время.

Ключевые слова: образование, ситуация, ситуационный анализ, профессия, проблемная ситуация, обучение, эвристическое обучение, модульное обучение, интеллект.

Annotation: In article under the name “The specification of organization problemthye lessons” are considering questions, levels of problem education creating problem situations, also necessity of the problem yeducation in present time.

Key words: know ledge, situation, situational analysis, profession, problematic situation, yeducation, training, hycristic teaching, modular training, learning education.

Кириш. Muammoli o’qitishning talablar darajasidagi sifatini ta’minlash, talabalar tomonidan o’zlashtirilgan axborotlar bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida seminarlar o’tkazish mumkin.

Ma’lumki, bunday seminar o’tkazishning dastlabki maqsadi axborotni jamoa bo’lib muhokama qilishdir. Seminarining samaradorligi albatta talabalarni unga tayyorlanish sifatiga bog’lik. Talabalarni seminariga tayyorlash bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Bunday seminar mashg’uloti odatda muhokama qilinadigan mavzuning mohiyati va dolzarbligi maruza material bilan bog’lashni yeslatish bilan boshlanadi. Shundan so’ng talabalar o’rganilayotgan masalani muhokama qilishga faollashtiriladi, bilimlarini namoyish qila olishi aniqlanadi. Bu ikki yo’l bilan amalga

oshiriladi: yo qisqacha javoblar talab qiluvchi va oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar bo'yicha suhbat shaklida yoki tuzatish (korreksiya) test savollari asosida nazorat qilish orqali. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu har ikkala bilimlarni yuzaga chiqarish usuli tezkor usul bo'lib, seminarning ushbu bosqichini o'tkazishning muhim samarali sharti hisoblanadi..

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning ham mantiqiy davomi, ham uni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.¹

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Профессор Н.Азизхўжаева муаммоли вазиятнинг маъносини қуйидагича таърифлаган: муаммоли вазият ўқувчи-талабаларга маълумотлар, билимлар билан янги далиллар, ҳодисалар, вазиятлар орасидаги диалектик қаршиликлар бўлиб, уларни тушуниб олиш учун илгари олган билимларининг етишмаслигидир. Бу қарама-қаршиликлар ижодий билимларни ўзлаштириш учун ҳаракатлантирувчи куч бўлиб хизмат қилади.

Шунингдек Н.Азизхўжаева таълим жараёнида муаммоли масалаларни ечимини топишда қуйидаги фикрларни ҳам курсатиб утган:

- Ўқувчи-талабалар ўз олдларида турган масаланинг ечимини топа олмайди, муаммоли савол юзага келганда унга ўз вақтида жавоб бера олмайди, янги мавзунини тушунишда анча қийинчиликларга дуч келади.
- Ўқувчи-талабалар олдин эгаллаган билимларини янги шароит ва вазият юзага келганда қўллай олмайди.
- Уларнинг муаммони назарий йўл билан ҳал этиш ва бу танланган усулни амалга ошириши ўртасида қарама-қаршиликлар вужудга келади.

Ўқувчи-талабалар амалда бажарган топшириқ натижалари билан ўзларининг назарий жиҳатдан тушуниб етишлари ўртасида билимларининг етишмаслиги ҳам муаммоли вазиятлар юзага келишига олиб келади.

Pedagogik muloqot deganda, odatda, o'qituvchining o'quvchi bilan dars mobaynida va darsdan tashqari bo'ladigan aniq pedagogik funksiyalarga ega va qulay psixologik muhitni yaratish, shuning bilan birga, boshqa xildagi psixologik optimal ilmiy faoliyat va pedagog bilan o'quvchilar uchun o'rtadagi munosabatlar uchun yonaltirilgan professional muloqot shakli tushuniladi (A.A.Leontev).

Tadqiqot metodologiyasi. Mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollarni muhokama qilish ko'pincha talabalarda turli, muqobil javoblarni ham yuzaga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. 20.04.2017 yildagi [Qarori](#) bilan "2017-2021 yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish" dasturidan - "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan.

keltiradi. Bunday javoblarning bo'lishi xilma-xil nuqtai nazarlarning to'qnashuviga sabab bo'ladi va u seminarning munozaraga aylanishiga olib keladi. Seminarni munozara shaklida tashkil yetish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanadi. Munozara shaklida seminar o'tkazish talabning fikrlash va muloqot qobiliyatlarining shakllanishi uchun tezkor omil sifatida katta ahamiyatga molikdir.

Seminaridagi munozara quyidagilarni ko'zda tutadi:

- *seminar jarayonida qo'yilgan savollarga javob berishda talabalarning yerkin fikr bildirish va asoslay olishlarini ta'minlash;*

- *taalluqli javoblarning boshqa talabalar tomonidan tushunilishini ham ta'minlash;*

- *nuqtai nazarlarga tanqidiy mulohazalar bildirishni tashkil yetish, ularni oydinlashtirish, to'ldirish, o'zgartirish;*

- *oydinlashtirilgan, to'ldirilgan, o'zgartirilgan fikrlarning tushunilishini ta'minlash;*

- *qo'yilgan savollarga yakdil isbotlar asosida javoblar berishga ko'nikma hosil qilish.*

Munozarani shu jarayonda qo'yilgan savollarga berilgan javoblardan iborat xulosalarni shakllantirish va shunday muammolarni belgilash orqali yakunlash kerakki, ular keyingi seminarlar yoki talabalarning mustaqil ishlarida hal qilinadigan bo'lsin.

Хулоса. Shunday qilib, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminarlar quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. *Seminar mavzusining dolzarbligini asoslovchi o'qituvchining kirish suhbatini.*

2. *Seminar mavzusi mazmunini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni yuzaga chiqarish.*

3. *Tayyorlangan ma'ruzasi bo'yicha talabalarning chiqishlarini tashkil yetish va ularning ko'targan masalalarini seminar qatnashchilarining tushunib olishlarini ta'minlash.*

4. *Seminarga qo'yilgan talabalar ma'ruzalarining muhokamasini tashkil yetish.*

5. *Seminarni yakunlash.*

Demak, muammoli o'qitish bu o'qitishning pedagogik texnologiyasi bo'lib, o'zining mazmuni va tuzilmasi bo'yicha o'qituvchi va talabning ijodiy jarayonlarini sintezlaydi.

Muammoli o'qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o'quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko'chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Azixodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2005.

2. Ziyomuxamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T., 2009.

3.Tolipov O', Q, Usmonbayeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

4.Xodiyev B va boshq.. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil yetish usul va vositalari. – T.: TDIU. – 2010 – 97 b.